# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko‘ra, 2020- yilda Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 49 015,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 7,1 % ga o‘sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 126,9 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 8,4 % ga yetdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o'tgan yilga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|---|
| | | ***2019- yil*** | ***2020- yil*** | |
| | **I. YaHM** | **36 052,8** | **49 015,1** | **107,1** |
| | *shu jumladan:* | | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 34 967,2 | 48 093,6 | 107,1 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 1 085,6 | 921,5 | 107,3 |
| | **Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **34 967,2** | **48 093,6** | **107,1** |
| | **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **5 756,6** | **6 896,1** | **103,1** |
| | **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **24 729,4** | **36 137,5** | **109,1** |
| | sanoat | 23 248,9 | 34 241,3 | 109,4 |
| | qurilish | 1 480,5 | 1 896,2 | 105,3 |
| | **Xizmatlar** | 4 481,2 | 5 060,0 | 101,4 |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 148,9 | 1 239,1 | 97,6 |

| | | Mlrd. so‘m | | O‘sish sur’atlari, o'tgan yilga nisbatan % da |
|---|---|---|---|---|
| | | 2019- yil | 2020- yil | |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 718,5 | 815,9 | 104,4 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 2 613,8 | 3 005,0 | 102,3 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 48 747,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o’sish sur’atlari



| | 2019- yil | 2020- yil | |
|---|---|---|---|
| | 36 479,6 | 48 747,0 | Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (ming so`m) |
| | 3,4 | 5,3 | Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM mutlaq o’sish sur’atlari (o'tgan yilga nisbatan % da) |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 14,3 % ni, sanoat tarmog’i 71,2 % ni, qurilish 3,9 % ni va xizmatlar sohasi  10,6 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2019- yil* | *2020- yil* |
|---|---|---|
| **I. YaHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 97,0 | 98,1 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 3,0 | 1,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi** | **16,5** | **14,3** |
| **Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)** | **70,7** | **75,1** |
| sanoat | 66,5 | 71,2 |
| qurilish | 4,2 | 3,9 |
| **Xizmatlar** | **12,8** | **10,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3,3 | 2,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 2,1 | 1,7 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 7,4 | 6,3 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
*(jamiga nisbatan % da)*






YaHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur`atlari bilan bog`liqdir. O‘sish sur`atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,1 % (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi –14,3 %), sanoatda – 109,4 % (71,2 %), qurilishda – 105,3 % (3,9 %), xizmatlar sohasida – 101,4 % (10,6 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,4 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % ( 6,3%) dan iborat bo‘ldi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda kamayish kuzatilmoqda – 97,6 % (2,6 %), o‘

## YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
*(o'tgan yilga nisbatan % da)*






## 2020- yilda YaHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
*(jamiga nisbatan % da)*



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 126,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 134,7 % va qurilishda – 121,6 % qayd etildi.

**YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**
*(o'tgan yilga nisbatan % da)*

